



Banklarda Masofaviy Xizmatlar Va Ularni Rivojantirish

Narzullayeva Zuhra Abdullo qizi

*Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti Samarqand filiali, Bank ishi va audit ta'lim yo'nalishi
2-kurs talabasi*

Togayev Salim Sobirovich

"Buxgalteriya hisobi, soliq va moliya" kafedrasi dotsenti v.b., i.f.f.d.

Annotatsiya: Mamlakatimizda masofaviy bank tizimini rivojlanтирish-bank xodimlari sonini qisqartirish natijasida banklarning daromadlarini oshirish, shuningdek, bank mijozlariga uyda bo'lgan holda bank xizmatlaridan foydalanishlari uchun qulay imkoniyat yaratish, mijozlarni jalb etishdan iborat.

Kalit So'z: Banklarda masofaviy xizmat ko'rsatish tizimlari turlari, bank-mijoz, internet-banking, mobil-banking, sms-banking, masofaviy xizmatlardan foydalanuvchilar statistikasi.

Barchamizga ma'lum, banklarda xizmat ko'rsatishning bir necha xil turlari mavjud. Ya'ni, online-masofaviy va offline-bank tashkilotiga kelgan holda amalga oshirish. Masofaviy tizim hozirgi kunda eng qulay xizmat turi hisoblanadi. Dunyo mamlakatlari bankida bu tizim ancha oldin yo'lga qo'yilgan. Shu sababli, Respublikamizda esa so'nggi yillarda bank tizimi, ya'ni masofaviy bank tizimini rivojlanтирish, ayniqsa, sohaga zamonaviy IT-tehnologiyalarni keng joriy etish, raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish qaratilgan konstruktiv choralar ko'rilmoxda. Masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatish turli bank operatsiyalarni masofadan amalga oshirish imkoniyatini beradigan xizmatlar kompleksidir. Buning uchun bank muassasasiga tashrif buyurmasdan turib kompyuter yoki mobil telefonidan foydalanish kifoya. Masofaviy xizmat ko'rsatish tizimidan quyidagi asosiy maqsad va vazifalar ko'zlangan:

- ✓ Mijozlarning uyda bo'lgan holatlarida ham, plastik kartochkalarini ochishlari;
- ✓ Stipendiya, nafaqa, pensiya va boshqa turdag'i pullarni onlayn olish;
- ✓ Onlayn to'lovlarini amalga oshirish;

Bu boradagi jarayonlar joriy yildan boshlab yanada tezlashtirildi. Davlatimiz rahbari Oliy Majlisiga Murojaatnomasida ta'kidlab o'tganidek:

"Afsuski, bank tizimi raqamli texnologiyalarni qo'llash, yangi bank mahsulotlarini joriy etish va dasturiy ta'minotlar bo'yicha zamon talablaridan 10-15 yil orqada qolmoqda. 2020-yildan boshlab har bir bankda keng ko'lami transformatsiya dasturi amalga oshiriladi. Bu borada banklarimizning kapital, resurs bazasi va daromadlarini oshirish alohida e'tiborimiz markazida bo'ladi. Bank sohasidagi islohotlarning asosiy maqsadi – tijorat banklarini mijoz uchun ishlashga o'rgatishdan iborat".


Xususan, o'tayotgan yilda bank tizimida tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlaydigan "loyihalar fabrikasi" faoliyatini yo'lga qo'yishga alohida e'tibor qaratilyapti. O'z navbatida banklarning xalqaro moliya bozorlariga chiqib, arzon va uzoq muddatli resurslar olib kelishi yo'lida, masalan, Milliy bank va Ipoteka bank o'z yevrobondlarini chiqarish ustida ish olib bormoqda.




**2023: International Conference on
"Academic Integrity and Lifelong Learning" (France)**
<https://www.openconference.us/index.php/academic/issue/view/14>

Ayniqsa, pandemiya sharoitida banklarning masofaviy xizmat ko'rsatish sifati va tezkorligi har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etdi. COVID-19 pandemiyasi masofaviy bank xizmatlariga o'tishni sezilarli darajada tezlashtirdi. 2020-yilda bankomatlar soni 33% ga, bank kartalari soni 27% ga oshdi. Bundan tashqari, to'liq raqamli banklar (TBC UZ, Anorbank) paydo bo'ldi va an'anaviy banklar onlayn xizmatlar takliflarini kengaytirdi. Quvonarlisi, koronavirus kasalligi tarqalishining oldini olish maqsadida yurtimizda pensiya ta'minotini masofadan turib amalga oshirish jarayonlarini amalga oshirishda ijobiy natijalarga erishilmoqda. Xususan, bu borada pensionerlarga plastik kartochkalar ochib berish bo'yicha sezilarli ishlar olib borilyapti. ko'rsatish sifati va tezkorligi har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etyapti.

Masofadan bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilarning soni
 1 yanvar holatiga



Masofadan bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilarning soni
 (turlari bo'yicha)
 1 yanvar holatiga





Ushbu chizmalarni bir-biri bilan taqqoslaydigan bo'lsak, ko'rinish turibdiki, yil sayin masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar ko'paygan va yana ham oshib bormoqda. Shu uchun bu sohaga yengilliklar yaratilib berilmoqda. Bunga sabab esa, texnika va texnologiyalarning rivojlanib borayotganligidir.

1-rasmida ko'rinish turibdiki, 2021-yilda Respublikada masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 2022-yildagi ko'rsatkichdan ancha past bo'lgan.

Xulosa o'rnila shuni aytish mumkinki, banklarda masofaviy xizmatlarni ko'paytirish, moliyaviy barqarorlik darajasiga ta'sir etuvchi omillar va ularni barqaror etish masalasi mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy holatini yaxshilashga xizmat qiladigan dolzarb vazifa bo'lib hisoblanadi. 2021-yil oktyabr oyida Markaziy bank banklarga mijozlarni masofadan aniqlashga ruxsat berdi. Bu esa mijozlarga ilgari xizmat ko'rsatilmagan banklarda ham masofaviy xizmatlardan foydalanish imkonini berdi.

Shularga uyg'un tarzda bugungi kunda mamlakatimizda tijorat banklari tomonidan ko'rsatilayotgan masofaviy xizmatlar holatini yaxshilash, qulay va zamonaviy xizmatlarni joriy etish maqsadida qator ishlar amalga oshirilmoqda.

- Respublikadagi epidemiologik holat barqarorlashgandan so'ng fuqaro (pensioner) Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limiga murojaat qilgan holda, o'z xohishiga ko'ra pensiya pulining ma'lum bir qismini naqd pul ko'rinishida olishi mumkin;
- Hozirda pensionerlar uchun kartadagi mablag'larini bankomatlardan bepul naqdashtirish, shuningdek, to'lovlarni naqd pulsiz amalga oshirishlari uchun barcha hududlarda tegishli to'lov infratuzilmasi yaratilgan;
- To'lovlarni masofadan onlayn tarzda to'lash imkoniyati;

Shu o'rinda, pensiya pullarini naqd shaklda oladigan pensionerlarga Xalq bankining shaxsiy pensiya-overdraft kartalarini ochish va pensiya mablag'larini bank kartalariga o'tkazish tavsiya etiladi.

Yurtimizda banklarning masofaviy xizmatlarini ko'rsatish sifati va ko'lamini kengaytirishda Prezidentimizning 2018-yil 9-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni dasturi amalda to'lov tizimini yanada rivojlantirish, shu jumladan, masofadan turib bank xizmatlaridan foydalanish hamda yangi texnologiyalardan foydalanish asosiy vazifa etib belgilandi.

Jumladan, yurtimizda mijozlarga taklif etilayotgan masofaviy bank xizmatlaridan:

- ✓ "Bank-mijoz";
- ✓ "Internet-banking";
- ✓ "SMS-banking";
- ✓ "Mobil-banking".

shakllari mijozlar tomonidan keng foydalanilmoqda. Sababi, ularning barchasi har ikkala tomonning o'zaro manfaatli sheriklik asosida faoliyat yuritishida qo'l kelmoqda.

Bank-Mijoz – bu kompyuter orqali amalga oshiriladigan tizim bo'lib, bunda mijozning kompyuteriga maxsus dastur o'rnatiladi. Ushbu dastur kompyuterda barcha mijoz ma'lumotlarni saqlaydi (asosan to'lov hujjatlari va hisobvaraqlardan ko'chirmalar). Bank va mijozning kompyuteri o'rtasida modem orqali to'g'ridan-to'g'ri aloqa amalga oshiriladi.

Internet-banking – bu mijozlarning depozit hisobvaraqlarini, jumladan bank kartalariga ochilgan hisobvaraqlarini, internet orqali boshqarish huquqini beruvchi tizimdir. Bu xizmat turi



mijozning masofadan bank bilan bog'langan holda real vaqt davomida to'lovlarini o'tkazish uchun mo'ljallangan tizimdir. Foydalanuvchi tizimga veb-brauzer orqali kiradi.

"Ipak Yuli Mobile for Business" mobil ilovasi ("Internet Banking" tizimining mobil ilovasi) - bank mijozlariga (yuridik shaxs, yuridik shaxs tashkil etmagan yakka tartibdagi tadbirkorlarga va boshqa tashkilotlarga) masofadan xizmatlarni ko'rsatishga mo'ljallangan mobil qurilma uchun dasturiy xizmatdir.

Mobil banking- tizimi internet-banking texnologiyasi asosida yaratiladi.

SMS-banking – bu bank mijozlarga ularning depozit hisobvaraqlaridagi hamda bank kartalariga ochilgan hisobvaraqlaridagi operatsiyalar haqida SMS ko'rinishdagi ma'lumotlarni olish tizimidir. Hisobvarag'idan ma'lumot olish uchun mijoz bankning maxsus telefon raqamiga belgilangan SMS-so'rovni yuborish kerak.

Masofaviy bank xizmatlari masalalari bo'yicha OPERU yuridik shaxslarga xizmat ko'rsatish bo'limiga yoki filialga xizmat ko'rsatuvchi yuridik shaxslarning hisob-kitob operatsiyalari sektoriga murojaat qilish kerak.

Tijorat banklari tomonidan taklif etilayotgan masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni so'nggi 7 yil ichida salkam 83 barobarga oshgan. Ya'ni 2011-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 24 545 kishini tashkil etgan bo'lsa, 2017-yil 1-yanvarga kelib bu ko'rsatkich 2 042 111 nafarga yetgan.

Shuningdek, internet tarmog'idan foydalanayotgan aholi soni ham keskin ko'paymoqda. Bu esa masofaviy xizmatlar ko'rsatish tizimi zimmasiga yanada katta vazifalar yuklaydi.

Yurtimizda bank tizimining barcha tizimlariga katta e'tibor berilayotgani, bank sohasi rivoji uchun katta ahamiyat kasb etadi. Bank xizmatlarining ayrim turlarini masofaviy amalga oshirish yaxshi, har tomonlama qulaylikni keltirib chiqarmoqda. Shu bilan birga, bank xizmatlarining boshqa turlarini ham bosqichma-bosqich onlayn tarzda amalga oshirish yo'lga qo'yilsa, bank tizimi yana ham takomillashadi.

Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarga o'tish, masofaviy xizmatlarni keng joriy qilish-bank daromadining oshishi, aktivlari ko'payishiga ham sababchi bo'lmoqda. Bank ishchilarini sonini kamaytirish, bir tomondan bank daromadi oshishiga ham asos bo'la oladi. Bunda bank ishchilariga beriladigan oylik ish haqilarini, bank daromadlarini oshirish uchun sarf qilinadigan xizmatlar uchun foydalansalar, ko'zlangan maqsadgatezroq olib boradi deb hisoblayman. Bank ishchi hodimlari bajaradigan vazifalar, raqamli texnologiyalar orqali bajarilsa, ham vaqt jihatdan, ham xarajatlar jihatdan tejalgan bo'ladi.

Banklarda masofaviy xizmatlarni keng rivojlantirish, uni keng targ'ib qilish-bank tizimining zamонави, tezkor va qulay ekanligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://bankers.uz/news/404-2021-yilda-banklar-miqyosida-masofaviy-bank-xizmatlaridan-foydalanish>.
2. Masofaviy xizmatlar
3. <https://cbu.uz/uz/payment-systems/remote-banking-services/>
4. <https://www.spot.uz/oz/2019/02/20/payment/>